

## SOG'LOM TURMUSH TARZI MUAMMOLARI

Mamatmusayeva Gulzodaxon

FJSTI, Pediatriya ishi yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

Rahmatova Namunaxon

FJSTI, Pediatriya ishi yo‘nalishi 1- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1520410>

*Annotation. Mazkur tezisda sog'lom turmush tarzining ahamiyati, uni shakllantirish va saqlab qolishdagi muhim omillar hamda mayjud muammolar yoritilgan. Bugungi kunda noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikning yetishmasligi, zararli odatlarning keng tarqaganligi sog'lom turmush tarzini joriy etishda jiddiy to‘siqlar bo‘lib xizmat qilmoqda. Ishda ushbu muammolarning sabablari, ularning jamiyat salomatligiga ta’siri tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar beriladi.*

*Kalit so‘zlar: Sog'lom turmush tarzi, sog'lom ovqatlanish, sport, kam harakatlilik, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, parhez, zararli odatlar, noto‘g‘ri ovqatlanish.*

## HEALTHY LIFESTYLE PROBLEMS

*Abstract. This thesis discusses the importance of a healthy lifestyle, the factors influencing its formation and maintenance, as well as existing challenges. Nowadays, issues such as unhealthy eating habits, lack of physical activity, and the widespread prevalence of harmful habits pose significant obstacles to adopting a healthy lifestyle. The study analyzes the causes of these problems, their impact on public health, and suggests solutions for their elimination.*

**Key words:** healthy lifestyle, healthy nutrition, sport, physical inactivity, physical activity, personal hygiene, diet, bad habits, unhealthy eating.

## ПРОБЛЕМЫ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ

*Аннотация. В данной диссертации рассматривается значение здорового образа жизни, факторы, влияющие на его формирование и поддержание, а также существующие проблемы. В настоящее время такие проблемы, как неправильное питание, недостаточная физическая активность и распространенность вредных привычек, создают серьезные препятствия для ведения здорового образа жизни. В работе анализируются причины этих проблем, их влияние на общественное здоровье и предлагаются решения для их устранения.*

**Ключевые слова:** здоровый образ жизни, здоровое питание, спорт, малоподвижность, физическая активность, личная гигиена, диета, вредные привычки, неправильное питание.

### **Kirish.**

Hozirgi zamon hayotida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va unga rioya qilish inson salomatligini saqlashda eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Texnologik rivojlanish, shaharsozlikning jadallahuvi, ovqatlanish madaniyatidagi o‘zgarishlar hamda jismoniy faollikning kamayishi kabi omillar inson organizmiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlari va o‘smlar orasida zararli odatlarning keng tarqalishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, kamharakatlilik va stress holatlari sog‘lom turmush tarziga putur yetkazmoqda. Shu sababli sog‘lom turmush tarzining ahamiyatini tushunish, uni shakllantirishga to‘sinqinlik qilayotgan muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha samarali choralarни ishlab chiqish dolzarb masalaga aylangan.

Mazkur ishning maqsadi — sog‘lom turmush tarziga xalaqit berayotgan asosiy omillarni aniqlash, ularning jamiyat salomatligiga ta’sirini tahlil qilish hamda ushbu muammolarni bartaraf etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

1. Sog‘lom turmush tarzining mohiyatini ochib berish;
2. Turmush tarziga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
3. Mavjud muammolar va ularning salbiy oqibatlarini aniqlash;
4. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

**Sog‘lom turmush tarzi** – bu xatti-harakatlarning xavf omillarini nazorat qilish orqali sog‘lig‘ini saqlashga va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradigan insonning turmush tarzidir.

### **Sog‘lom ovqatlanish**

Sog‘lom ovqatlanish bir qator yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning oldini olishning eng muhim vositasi hisoblanib, sog‘lom umr ko‘rish davomiyligini oshirishga xizmat qiladi. Sog‘lom ovqatlanish parhezlari o‘lim xavfini (22% ga), yurak-qon tomir kasalliklarini (22% ga), saratonni (15% ga) va 2-tur qandli diabetni (22% ga) sezilarli darajada kamaytirishi mumkin.

### **Jismoniy faollik**

Sport bilan shug‘ullanadigan kishilar bir qator kasalliklarga, jumladan yurak va onkologik xastaliklarga kamroq chalinadi. Bundan tashqari, ularning tanasi va to‘qima tarkibi ko‘pincha sog‘lom bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jismoniy faollik barcha tabiiy sabablarga ko‘ra o‘lim xavfini pasaytiradi. Xususan, haftasiga 2,5 soat (ya’ni, haftada 5 kun davomida kuniga 30 daqiqa o‘rtacha faollik) nol faollikka nisbatan barcha sabablarga ko‘ra o‘lim xavfini 19 foizga kamaytirsa, haftasiga 7 soat o‘rtacha faollik esa bu xavfni 24 foizga pasaytiradi.

Quyidagi sog‘lom turmush tarzining eng muhim 7 qoidasi siz-u bizga avvaldan ma’lum bo‘lgan, biroq hayotning mayda-chuyda tashvishlari bilan yodimizdan ko‘tarilgan va amalga oshira olmay qolgan tartiblarni yodga solsa ne ajab.

Sport — umrimiz oxiriga qadar sog‘lom hayot kechirishning asosiy shartlaridan. U yosh ham, joy ham, hattoki shart-sharoit ham tanlamaydi. Uning ko‘rinishlari, shakllari, usullari ko‘p.

Yoga, pilates, piyoda yurish, yugurish, turnikka tortilish, otjimaniya, raqs, rafting, bodibilding, gimnastika, futbol va hokazo turlari bor. Istaganingizni tanlang, jismonan faol bo‘lsangiz kifoya. Har kuni emas, kunora 30-60 daqiqa sport bilan shug‘ullansangiz, sog‘lom bo‘lishingiz uchun yetarli. Kamroq o‘tirish va ko‘proq harakatlanish kerak. Agarda kasbingiz o‘tirib ishlashni taqozo etsa, har soatda kamida 5 daqiqa tanaffus qiling va bu vaqtida turli yengil mashqlarni bajarib, yelka, bel va oyoqlar chigilini yozing.

Ovqatlanish rasioningizga tabiiy mahsulotlar — meva va sabzavotlar, vitamin va minerallarga boy oziq-ovqatlarni ko‘proq kiriting. Ovqatlanish rasionining 65 foizini meva va sabzavotlar, non va turli bo‘tqalar tashkil etishi, 30 foizi go‘sht va sut mahsulotlari, 5 foizi shirinlik va yog‘larga ajratilishi lozim. Ozuqalar imkon qadar yangi, mavsumga mos bo‘lishi lozim. Bahor va yozda o‘simliklar, qishda oqsil va yog‘ga boy mahsulotlarga ko‘proq o‘rin ajratilishi lozim. Har kuni 2 litr atrofida suv iching. Fast-fud, gazli ichimliklar, yarim tayyor mahsulotlar, chips va kirireshkilar, boshqa ko‘plab sun’iy ta’m, rang va shakl berilgan ozuqalardan voz keching.

Ovqatlanishda xilma-xil taomlarni aralashtirib yubormaslik lozim. Mevalar ovqatdan yarim soat avval, choy va ichimliklar 1-2 soat keyin iste’mol qilinishi zarur. Kechki 19-00dan keyin faqatgina bir oz olma tanovvul qilishga ijozat beriladi.

Organizmimizning asosiy dushmanlaridan bo‘lmish tamaki va alkogol mahsulotlari, turli zararli odatlar (ularni o‘zingiz yaxshi bilasiz)dan voz kechish orqali sog‘lom turmush tarziga keng yo‘l oching. Har bir chekilmagan sigaret, ichilmagan har bir stakan aroq sizning sog‘lom hayot kechirish sari tashlagan muhim qadamingizdir.

Kun tartibiga qat’iy rioya eting. Birinchi navbatda — 8 soatlik uyqu! Ikkinchidan, kunning bir vaqtida uqlash va muayyan vaqtida uyg‘onishga odatlanish! Uyquning buzilishi asta-sekinlik bilan inson ruhiyati, hissiyotlariga ziyon yetkazadi, ishchanlik kayfiyatini yo‘qotadi, keyinchalik turli surunkali, jiddiy xastaliklarning rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumin.

Sog‘lom turmush tarzining yana bir muhim qoidasi — yorqin va ijobjiy kayfiyat! Hayotdan ko‘proq zavq oling, muvaffaqiyatsizlik, omadsizliklarga ko‘p e’tibor qaratmang, doimo olg‘a intilish uchun kuch topa biling va odamlarga nisbatan g‘araz, gina-kudurat, yomon gumonlar saqlab yurmang, kechirimli, bag‘rikeng bo‘ling. Nodonlar bilan aslo tenglasha ko‘rmang!

Uyingiz, xona va ish kabinetingizni doimo toza tuting, har kuni uni artib-tozalang, derazalarni ochib, toza havo kirishini ta'minlang. Normal jismoniy holatda bo'lish uchun albatta chuqur va to'g'ri nafas olishni bilih lozim. Tabiat qo'ynida sayr qilish, oynalarni ma'lum muddat ochib qo'yish, tomorqa yoki ochiq havoda jismoniy mehnat qilishga yetadigani yo'q.

Ovqatlanishdan avval va keyin albatta qo'llarni yuvish, uyqudan oldin va ovqatlangandan keyin tishlarni tozalash, toza kiyim, umuman, tozalikka qat'iy rioxay etish sog'lom turmush tarzining asosiy shartlaridan hisoblanadi. Unutmang! Sog'lom turmush tarzi, bu — har qanday kasalliklar profilaktikasi va salomatlik, kuch-quvvat garovidir. U insonning turli qirralarini rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish garovidir. Sog'lom turmush tarzi qoidalariga rioxay etgan odam oilasi, mehnat jamoasi, umuman, jamiyatda o'z o'rniiga ega bo'ladi, turli murakkab vaziyatlarni yengib o'tish, hayot qiyinchiliklari oldida o'zini yo'qotmaslikka o'rganadi. Yana bir gap! Sog'lom turmush tarzi qoidalari bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, biri ikkinchisiz sodir bo'lishi amrimahol. Ularni ertaga qoldirmasdan, hoziroq amalga oshirishni boshlash bilan sog'lom va baxtli hayot sari ilk qadamlarimizni tashlagan bo'lamiz.

Bugungi kunda ko'plab insonlar sog'lom turmush tarziga rioxay qilmayapti. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- **Noto'g'ri ovqatlanish** – yarim tayyor mahsulotlar, fast-fud va shakarli ichimliklar iste'molining ortishi;
- **Kamharakatlik** – jismoniy faoliyatning yetishmasligi, ayniqsa, ofis ishlari va onlayn mashg'ulotlar tufayli;
- **Zararli odatlar** – chekish, spirtli ichimliklar iste'moli, energiya ichimliklariga qaramlik;
- **Stress va uyqusizlik** – ish va o'qish bosimi, raqamli texnologiyalar ta'siri natijasida psixologik muammolarning kuchayishi.

### Xulosa

Sog'lom turmush tarzi - bu faqatgina jismoniy sog'liqni saqlash emas, balki ruhiy barqarorlik, to'g'ri ovqatlanish, yetarli uyqu, muntazam jismoniy faollik va yomon odatlardan voz kechishni o'z ichiga oladi. Ammo bu turmush tarzini shakllantirish yo'lida ko'plab muammolar mavjud: zamonaviy texnologiyalarga qaramlik, stress, noto'g'ri ovqatlanish, harakatsizlik, hamda sog'lom hayot tarziga bo'lgan e'tiborsizlik. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun, avvalo, insonlarning o'zida sog'lom yashashga bo'lgan ichki ehtiyoj va mas'uliyat shakllanishi kerak.

Oila, maktab va jamiyat bu borada katta rol o'ynaydi. Bolalikdan sog'lom turmushga oid bilimlar berilishi, jismoniy tarbiya va sportga rag'bat uyg'otilishi muhim.

Shuningdek, davlat va sog‘liqni saqlash tizimi ham targ‘ibot, tibbiy xizmatlar va sog‘lom mahsulotlar bilan ta’minlash borasida faol ishlashi lozim.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda sog‘lom hayot haqida ko‘proq ma’lumot berilishi, yoshlar orasida bu boradagi ongni oshirish muhim ahamiyatga ega. Sog‘lom turmush tarzi muammolari har bir jamiyatda uchraydi, biroq ularni bartaraf etish mumkin va zarur.

Bu borada davlat, ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash tizimi va har bir fuqaroning hamkorligi orqali sog‘lom, faol va baxtli jamiyat barpo etish mumkin. Har bir kishi o‘z salomatligiga jiddiy yondashsa, sog‘lom jamiyat barpo etish osonlashadi. Bu esa butun millat salomatligi va taraqqiyoti uchun poydevor bo‘ladi.

## REFERENCES

1. Qodirova M.X., Karimova Z.T. "Sog‘lom turmush tarzi asoslari" – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Hasanov A., Tojiev M. "Jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush" – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Qodirov, R. X. (2024). *Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligini saqlash va mustahkamlash garovidir*. Universal xalqaro ilmiy jurnal.
4. Nishonova, D. T. (2022). *Sog‘lom turmush tarzi va uni tashkil etuvchi omillar*. IJODKOR O‘QITUVCHI.
5. Jalilov, B. N. (2023). *Sog‘lom turmush tarzi va uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar*.
6. Lutpullayev, B. I. (2024). *Sog‘lom turmush tarzi: talaba-yoshlar qarashlari*. Uzbek Scholar Journal.
7. Ibraximov, S. U. (2025). *Ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va rivojlantirish yo‘llari*.